

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING MILLIY VA UMUMINSONIY NEGIZLARI

Ametov Axmet Qulametovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, o'qituvchi.

e-mail: ahmetamitov6@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6986-9895>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada inson huquqlarini ta'minlashning milliy va umuminsoniy asoslari har tomonlama chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro dialektikasi keng yoritilgan. Inson huquqlarini ta'minlash jarayonida inson qadri, adolat, erkinlik va insoniylik tamoyillarining nazariy-metodologik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy-madaniy meros, milliy ong, milliy tafakkur, inson qadr-qimmat, inson manfaatlari, or-nomus, insoniylik, adolat, erkinlik.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аметов Ахмет Куламетович

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, преподаватель.

Аннотация.

В статье всесторонне анализируются национальные и общечеловеческие основы обеспечения прав человека. Особое внимание уделяется диалектической взаимосвязи национальных и общечеловеческих ценностей в обеспечении прав человека. С научно-теоретической точки зрения раскрывается теоретико-методологическое значение принципов человеческого достоинства, справедливости, свободы и гуманизма в процессе обеспечения прав человека.

Ключевые слова: права человека, национальные и общечеловеческие ценности, национально-культурное наследие, национальное сознание, национальное мышление, человеческое достоинство, интересы человека, честь и достоинство, гуманизм, справедливость, свобода.

NATIONAL AND UNIVERSAL FOUNDATIONS FOR ENSURING HUMAN RIGHTS

Ametov Axmet Qulametovich

Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Lecturer.

Abstract.

This article provides a comprehensive analysis of the national and universal foundations for ensuring human rights. Particular attention is paid to the dialectical interrelationship between national and universal values in the protection and realization of human rights. From a scientific and theoretical perspective, the article examines the theoretical and methodological significance of the principles of human dignity, justice, freedom, and humanism in the process of ensuring human rights.

Keywords: human rights, national and universal values, national and cultural heritage, national consciousness, national thought, human dignity, human interests, honor and dignity, humanism, justice, freedom.

Kirish. Hozirgi vaqtda inson huquqlarini har jihatdan muhofaza qilish hamda jamiyatda tutgan pozitsiyasini tushunish uchun eng birinchi navbatda ijtimoiy me'yorlarni, ya'ni uning asosini anglab yetish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, inson haq-huquqlarini ta'minlash milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro bir-biri bilan uzviylikni ajralmas ta'minlovchi tushunchadir. Ularning bir-biri bilan bog'liqligi va uzviy bog'liqligi negizida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ko'rinib turadi.

Jamiyat taraqqiyoti va istiqboli doim asosiy va muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, agar rivojlanish o'z yo'lidan istiqbolga qarab taraqqiy etmas ekan, albatta o'zligini yo'qotadi. Har qanday jarayonda bo'lgani kabi bu jarayonda ham vorisylikka chuqur amal qilishi kerak. Uning mazmuni shundan iboratki, barcha jarayonlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular shu yo'nalishda mavjud bo'lgan muammo va jarayonlar bilan har tomonlama bog'liq bo'ladi hamda uning asosida yuzaga keladi, undan keyingi rivojlanish uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan jihatlar va elementlarni qabul qilish asosida mukammal yangisi shakllanadi va yuksala boshlaydi. U har bir jamiyatning o'z negiziga asoslanib taraqqiy etishi va rivojlanishi shart bo'lgani uchunгина emas, balki har qanday jarayonlar uchun ham amal qiladi hamda o'z vorisyligining xarakterli o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bu bilan uning milliy taraqqiyot uchun muhim ahamiyati shundaki, u jamiyatning o'z xususiyatlari asosida rivojlanishi uchun ko'proq imkoniyatlar salmog'ining mustahkam bo'lishiga har tomonlama xizmat qiladi. Shuningdek,

yuqoridagi fikrlar va qarashlarni inobatga olib, inson huquqlarini ta'minlashning milliy negizlariga milliy-madaniy meros va qadriyatlar, milliy ong va milliy tafakkurlarni kiritish maqsadga muvofiq. Endi ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga e'tibor qaratiladi.

Bizga ma'lumki, falsafiy nuqtayi nazardan meros — insoniyatning o'tmishi va har bir tarixiy bosqichida yashagan avlodlari yuzaga keltirgan va yaratgan hamda kelajakka yetkazib berilgan barcha moddiy, ilmiy, ma'naviy, madaniy boyliklari yig'indisidir. "Madaniy meros esa ajdodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlarda xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy va ma'naviy boyliklar majmui hisoblanadi" [1]. Jamiyat rivoji, tarixiy taraqqiyoti asosida ajdodlarimiz tomonidan yuzaga kelgan, umumiy tarzda milliy-madaniy meros avlodlarga yetkazilib kelinayotganligini nazarda tutib, meros deb atash mumkin. Aynan ana shu milliy meros inson huquqlarini ta'minlashning negizi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi globallashtirish jarayonida yoshlarda yangicha dunyoqarashning shakllanishida milliy merosning ahamiyati juda katta. Zamonaviy san'at (kino, teatr, turli ko'rsatuvlar) asarlarining ayniqsa ta'siri kuchli hisoblanadi. Inson huquqlarini ta'minlashning yana bir negizi sifatida milliy qadriyatlarni ham alohida qayd etish mumkin. "Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlar, an'analar, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi" [2]. Darhaqiqat, fuqarolarning haq-huquqlarini barcha tarafdin ta'minlash tarixiy jihatdan o'rnatilgan barqaror xalqchil madaniyatimiz, e'tiqodlar, siyosiy qarashlar va insoniyat hayotining tizimlilik nuqtayi nazardan tiklanishini ta'minlaydigan sistema sifatida oynadek aks etadi.

Fuqarolik jamiyatida O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijodkorligiga tayanar ekan, ularning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda milliy-huquqiy rivojlanishimizning negizlari bo'lgan ma'naviy boyliklarni shakllantirishda qat'iy natijalarga erishish lozim. Shu bois inson huquqlarini ta'minlashning asosiy xatti-harakatlari va uning jamiyat hayotidagi o'rnini mukammal asoslab berish, eng avvalo, unga zamin bo'ladigan negizi ilmiy va amaliy ahamiyatdan doimo o'zgarishsiz bo'ladi.

Jamiyatda inson qadr-qimmati, manfaatlari va erkinligi, or-nomusi ta'minlanishi muammosi ezgu maqsad sifatida uzoq davrlardan beri davom etadigan ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Jamiyatimizda katta ahamiyatga ega bo'lgan barcha boyliklarning yaratuvchisi bo'lgan insonning huquq va erkinliklari, sharoitini har tomonlama takomillashtirish borasida salmoqli ishlar olib borilyapti. "Bundan maqsad — mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishdan iboratdir" [3]. Shu o'rinda, insonning sha'ni, hayoti, qadr-qimmati masalasi har tomonlama ilmiy va huquqiy jihatdan tahlil qilib, uni bugungi kunda ijtimoiy hayotga qo'llash yo'llarini va vositalarini belgilash, jamiyatda insonparvarlik qadriyatlarini har jihatdan qaror toptirish hamma vaqtda ham dolzarb muammo sifatida talqin qilingan.

Ijtimoiy falsafada inson qadr-qimmati tushunchasi shaxs ijtimoiy faoliyatining ijobiy jihatlarini ifodalaydigan kategoriya sifatida aks ettiriladigan tushuncha. Ijobiylik tushunchasi esa, "Inson — oliy qadriyat" ekanligida namoyon bo'ladi. Uning mazmun va mohiyati, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarni falsafiy tadqiq etish uzoq genezisga ega. Binobarin, insonparvarlik tushunchasi sohasidagi muammolar rivojlanishimizning barcha pog'onalarida inson zoti, elatlar, xalqlarning vujudga kelishi bilan birga jamiyatda egallagan mavqeyi haqidagi fikrlar allomalar, olim-u fuzalolarning falsafiy qarashlarida aks etib kelgan. Shu jihatdan ham, inson qadr-qimmati haqidagi g'oyalar Sharq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodining asosiy mavzularidan biri bo'lgan.

Markaziy Osiyoda inson qadr-qimmati bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar rivojida musulmon Renessansi ham muhim ahamiyatga ega. Uyg'onish davri mutafakkirlari inson qadri "uning yuksak axloqiy fazilatlariga: qalbiy olijanoblik, saxovat va do'stlik fazilatlariga erishishga qodirligida deb bildilar" [4]. Antik davr falsafasiga ijobiy yondashgan musulmon madaniyatining yirik vakillari, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari inson masalasini tahlil qilishda qadimgi yunon falsafasining ilg'or fikrlariga ijodiy yondashganlar. Bu davr mutafakkirlari G'arbiy Yevropa Uyg'onish davri gumanistlari singari ijtimoiy hayotdagi g'oyaviy va siyosiy kurashlarga befarq qaramadilar.

Inson, uning qadr-qimmati haqidagi ilk qarashlar boy ma'naviy-madaniy merosimiz manbalaridan biri bo'lgan "Avesto"da aks ettirilgan. "Avesto"da zardushtiyliklarning muqaddas kitobi bo'lgan inson farovonlikka erishish uchun halol mehnat qilish orqali erishilishi ko'rsatilgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan: Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida inson qadr-qimmati haqida ilg'or g'oyalar shakllantirilgan.

Inson huquqlarini ta'minlashning yana bir negizi nazarimizda adolat hisoblanadi. Inson va insonlar o'rtasidagi munosabat, inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi munosabat faqat adolat ustuvorligi asosiga qurilsa, barqarorlik va progress bo'ladi. Buyuk faylasuf Arastu ta'kidlaganidek, "Barkamollikka erishgan inson barcha jonzoatlardan ustun turadi, lekin qonun adolatga bo'ysunmay yashasa, u eng tubandir. Adolatsizlikni dastak qilib olishdan dahshatli yo'q" [5]. Insoniyat tarixidagi barcha nizolar, urushlar adolatning buzilishi yoki adolatni ta'minlash maqsadida bo'lgan. To'g'ri, jamiyatda adolatni hamma turlicha talqin qiladi. Uning murakkabligi ham shundan iboratdir. Lekin adolat inson huquqlarini ta'minlashning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Inson huquqlarini ta'minlashning adolat bilan chambarchas bog'liqligi xususida Husayn Voiz Koshifiyning fikrini keltirish mumkin: "Adolatning ma'nosi xalqning huquqiy tengligini ta'minlashdir. Adl shunday ziynatdirki, u mamlakatga oroyish beradi, bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug'likka aylanadi" [6]. Demak, adolatning asosini ijtimoiy mavqe tashkil etar ekan, jamiyatda fuqarolarning barobarligi, birinchi navbatda, fuqarolar erkinliklarining joriy qilinishi dolzarb masaladir. Aslida fuqarolar erkinliklari birinchi navbatda hisobga olinmasa, o'z-o'zidan jamiyatda huquqiy barqarorlik ham bo'lishi mumkin emas. Undan tashqari, jamiyat hayotida fuqarolarning tafakkurini adolat tamoyili bilan boyitish ham juda muhimdir.

Jamiyatda adolat prinsipini ta'minlash ahamiyatga ega. Chunki jamiyat insonning adolat tuyg'ularini amalda

ro'yobga chiqaruvchi, ta'minlab beruvchi, kafolatlovchi makon sifatida namoyon bo'ladi. Insonning ijtimoiylashuvi davlat va jamiyatda vujudga keladi. Shu o'rinda insonning adolat tuyg'usi individual holatdan ijtimoiy darajaga ko'tariladi va jamiyat boshqaruvining ijtimoiy mexanizmlari va mohiyat-mazmunini belgilaydi. Ana shu jihati bilan ham inson huquqlarini ta'minlash uchun asos bo'la oladi.

Inson huquqlarini ta'minlashning yana bir negizi bu erkinlik hisoblanadi. Erkinlik va uning falsafiy mohiyati bevosita jamiyat va inson faoliyati va uning ichki ruhiy olami bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Erkinlikka bo'lgan ehtiyoj inson mayllariga, xohish-istaklariga emas, balki adolatga asoslangandagina to'liq namoyon bo'ladi. "Huquqiy jamiyatda qonunlarni qabul qilish va o'zgartirish faqat xalq irodasi asosida amalga oshiriladi. Bunday jarayonlar bevosita fuqarolarning adolatga bo'lgan istaklarining ifodasi hisoblanadi. Shu jihatlari bilan erkinlik nafaqat inson huquqlarini ta'minlashning negizi hisoblanadi. Zero, jamiyatda hokimiyat va siyosiy islohotlar erkinlik imkoniyatlarini tashkil etib berishi mumkin, ammo uni amalda qo'llash shaxsning madaniyati bilan bog'liq bo'ladi" [7].

Erkinlik inson ruhiyatidagi irodada mavjud bo'lib, u hech kim tomonidan hadya qilinmaydi. Balki erkinlikka egalik qilgan shaxslar vujudida shakllanadi. Erkinlikni ta'minlash — odamlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligiga bog'liq hodisa. Odamlar o'z erkinligini anglashlari barobarida o'zgalarning erkinlik irodasini qadrlashga kirishadilar. Unda adolat, oqibat, sadoqat kabi fazilatlar jamiyat munosabatlarining erkinligini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Bu munosabatlar ijtimoiy turmushning ma'naviy tarkibi sifatida hokimiyat munosabatlariga ham ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Muhimi, erkinlikka intilish oqibatida insonlarning ruhiyati doimo poklanib boradi. Ularning yovuzlik va zo'ravonlikka qarshi turish imkoniyati ortib boradi. Ya'ni ana shu intilish inson huquqlarini ta'minlashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Inson mohiyatan erkinlikka tashna va unga intilib yashaydi. "Odamzotning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlarini har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi" [8]. Ularga amal qilish bevosita inson huquqlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlashning ma'no-mazmuni va uning jamiyat hayotidagi o'rnini anglab olish uchun eng avvalo, uning negizini aniqlab olish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, inson huquqlarini ta'minlashning milliy va umuminsoniy negizlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ularning uzviy bog'liqligi negizida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b. – ISBN 978-9943-04-067-0. Iqtibos olingan sahifa: B. 30.URL: [TSUL elektron kutubxonasi](#).
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya): o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 196 b. Iqtibos olingan sahifa: B. 94.URL: [Chirchiq davlat pedagogika universiteti elektron kutubxonasi](#).
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b. URL: [Elektron nusxa va bibliografik ma'lumot](#).
4. Конрад Н. И. Запад и Восток: статьи. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Наука, 1972. – 496 с., 1 л. портр. Iqtibos olingan sahifa: C. 482.URL: [Российская государственная библиотека](#).
5. Yo'ldoshev S. Arastu. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – ISBN 5-645-03320-5. Iqtibos olingan sahifa: B. 72.
6. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy / Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi; matn M. Hasanov va A. Hakimjonov tomonidan tabdil qilingan va nashrga tayyorlangan. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. Iqtibos olingan sahifa: B. 47. URL: [Allomalar.uz — Husayn Voiz Koshifiy va "Axloqi Muhsiniy" haqida](#).
7. Alimardonov T. Erkinlik ruhi: monografiya. – Toshkent: Nishon-Noshir, 2015. – 252 b. – ISBN 978-9943-378-54-4. Iqtibos olingan sahifa: B. 128.URL: [Kitobxon.com — bibliografik kartochka](#).
8. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at / M. Abdullayev, M. Abdullayeva, G. Abdurazzoqova va boshq.; A. Jalolov, Q. Xonazarov umumiy tahriri ostida. – 2-nashr. – Toshkent: Sharq, 2000. – 320 b. Iqtibos olingan sahifa: B. 69.URL: [Ziyouz elektron kutubxonasi — "Mustaqillik" lug'ati](#).